XALQ DEPUTATLARI GULISTON TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Guliston tumani 120300, Turkiston ko‘chasi, 13-uy. Tel: (67) 796-24-57

2023 - yil 29 - dekabr VI-73-203-9-124-K/23 Guliston tuman hokimligi

Sirdaryo viloyati Guliston tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ 886-son Qonunga muvofiq hamda Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-60-194-9-0-K/23-son qaroriga muvofiq hamda Sirdaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 02/38/1023-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Guliston tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuni hamda xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-60-194-9-0-K/23-son qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Guliston tumani mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 26 473 974.0 ming so‘m, xarajatlari 65 845 151.0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 39 371 177,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Guliston tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun Guliston tuman mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlar prognozlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun Guliston tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini byudjyet tashkilotlari va taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3- va 3-a-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun Guliston tuman byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Guliston tuman mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. 2024-yil uchun avtotransport yig‘imlarining stavkalari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. 2024-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. 2024-yil uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. 2024-yil uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. 2024-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffisiyentlar 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

14. 2024-yil uchun Guliston tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 551 922,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

15. 2024-yil uchun Guliston tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 644 611,0 ming so‘m etib belgilansin.

16. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Guliston tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

korxonalar aylanmasidan soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-son qaroriga asosan 2024-moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 10 101 015 ming so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

18. Guliston tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Djurayev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (R.Suvonov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Umurov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

19. Guliston tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Umurov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

20. Guliston tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Djurayev, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (R.Suvonov):

Guliston tumanlar byudjetlari tasdiqlangan xarajatlarining (zaxira jamg‘armasi mablag‘larisiz) 5 foiziga teng miqdordagi mablag‘lar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy byudjetlarda shakllangan qo‘shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Guliston tumani Xalq deputatlari, tuman Yoshlar ishlar bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida

aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

21. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi. Mazkur qaror “Guliston hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Guliston tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Djurayev zimmasiga yuklatilsin.

23. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi M.Mamadaliyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **U.Mamadaminov**

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari prognozlari

Daromad turlari	Summa ming so‘m
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	5 859 824
Aylanmadan soliq	5 573 339
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig‘i	453 534
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 113 488
Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	99 222
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 963 640
Ijara to‘lovlar	57 273
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	260 468
Yuridik shaxslar yer solig‘i	519 074
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 574 112
Jami	**26 473 974**
Jami Transfertlar	**39 371 177**
Mobil aloqaga aksiz solig‘i, alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo), tamaki mahsulotlari tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**13 485 440**
Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	5 845 500
Mobil aloqaga aksiz solig‘i	2 354 580
Tamaki mahsulotlar	5 285 360
JAMI DAROMAD	**65 845 151**

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-YIL UCHUN GULISTON TUMANI BO‘YICHA MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARI VA XARAJATLARI REJA KO‘RSATKICHLARI

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Guliston tumani	26473974	65845151

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
3-ilova

Tuman mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

минг сўмда

Ko'rsatkichlari		Guliston tumani
	Xarajatlar - jami	**65 845 151**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**22 673 833**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	15 397 743
	- maktabgacha ta’lim	6 745 731
	- umumiy ta’lim	8 652 012
	shundan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tushlik berish xarajatlari	
	- kadrlar tayyorlash	0
1.2	Sog‘liqni saqlash	2 123 367
	shu jumladan: Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi orqali moliyalashtiriladigani	0
1.3	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	0
1.4	Madaniyat	1 558 047
1.5	Sport	3 486 308
1.6	Fan	0
1.7	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	
1.8	Chernobil falokatini bartaraf etishda qatnashganlarni ijtimoiy himoyalash	
1.9	Davlat mukofotlarini to‘lash bo‘yicha xarajatlar	
1.10	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	19 090
1.11	Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda va bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo‘yicha hisobga olinadigan yo‘lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash (jumladan PQ-5260 xarajatlari)	
1.12	Shahar passajir transportida ba’zi kategoriyadagi kishilarning bepul yurishlarini byudjetdan qoplash	

1.13	Cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan shahar yo‘lovchi tashish transporti tashuvchilari ko‘radigan zararlarni qoplash shuningdek shahar pasajir transportda bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo‘yicha hisobga olinadigan yo‘lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	
1.14	Fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash	0
1.15	1941-1945 yillardagi urush faxriylari va unga tenglashtirilgan shaxslar uchun asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari va gigiyena tovarlarini bepul berish xarajatlari	
1.16	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	89 278
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**14 748 327**
	shu jumladan:	
2.1	*Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari*	4 000 000
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	447 000
2.2	O‘simliklar karantini inspeksiyalari xarajatlari	0
2.3	Obodonlashtirish	6 108 994
2.4	Ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari	0
2.5	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	
2.6	Maxsus ekspluatatsiya-montaj xarajatlari	0
2.7	Ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta’mirlash va yangilash	
2.8	"Toza hudud" Davlat unitar korxonasi	
2.9	Xo‘jayli va Chalish suv yo‘li texnik uchastkasi	
2.10	Issiqlik ta’minot korxonalariga subsidiyalar	
2.11	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 879 711
2.12	O‘rmon xo‘jaligi tashkilotlari	0
2.13	Davlat ekologiya qo‘mitasining hududiy boshqarmalari	0
2.14	Chigirtka va qizil kapalakka qarshi profilaktika va kurashish radiologik va toksikologik kuzatuvlarni olib borish, tuproq hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlaridagi og‘ir metall tuzlari va pestisidlar cho‘kindi qoldiqlari, to‘plangan radionuklidlarni tahlil qilish bo‘yicha chora-tadbirlar	
2.15	Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari	0
2.16	Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari	0
2.17	Veterinariya qo‘mitasi	1 544 267
2.18	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	0

2.16	Umum foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash va ekspluatatsiya xarajatlari	
2.19	Avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	0
2.24	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	768 355
3.	**Markazlashtirilgan investisiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar**	**0**
3.1	tuman va shahar markazlarini obodonlashtirish	
3.2	Markazlashtirilgan investisiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	
3.3	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.4	Umumta’lim maktablarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.5	Sog‘liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.5	Sport muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.6	Melioratsiya obyektlari	
3.7	Avtomobil yo'llari	
3.8	Oliy ta'lim	
3.7	Ichimlik suvi va kanalizatsiya	
3.10	Boshqa hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag‘lar	
3.8	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqsimlanadigan mablag‘lar	
3.9	«Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarining xarajatlari	
4.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**17 770 054**
5.	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	
6.	**Zahira jamg‘armas**	**551 922**
7.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**10 101 015**
8.	**Boshqa xarajatlar**	**0**
	Shu jumladan	
8.1	Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	0
8.2	Qabullar uyini saqlash xarajatlari	
8.3	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	0
8.4	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari	

8.5	Prezident maktablarini qurish uchun jalb etilgan qarz mablag‘larini qaytarish xarajatlari	

Tuman mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so'mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**65 845 151,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limi**	**14 069 498,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 069 498,0
	Maktabgacha ta'lim muassalari	6 745 731,0
	Umumtalim maktablari	2 770 889,0
	"Barkamol avlod" bolalar markazi	744 856,0
	Xalq talimi bo‘limi	3 808 022,0
2	**Tuman sanitariya va epidemiologik osoishtalik markazi**	**2 123 367,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 123 367,0
	Tuman sanitariya va epidemiologik osoishtalik markazi	2 123 367,0
3	**Madaniyat bo‘limi**	**2 491 734,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 491 734,0
	Madaniyat bo‘limi apparat	175 296,0
	Madaniyat markazi	642 423,0
	Xalq xavaskorlik jamoalari	345 770,0
	Bolalar musiqa va san'at maktabi	1 328 245,0
4	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**6 061 361,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 061 361,0
	Sport maktabi,	3 486 308,0
	Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi	2 575 053,0
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**2 256 357,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 256 357,0
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limini saqlash xarajatlari	2 256 357,0
6	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**1 991 267,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 991 267,0
	Veterenariya va chorvachiliikni rivojlantirish bo‘limi saqlash xarajatlari	1 001 028,0
	Xayvon Kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini davlat markazini saqlash xarajatlari	543 239,0
	Fermer xo°jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritish markazlarini saqlash xarajatlari	447 000,0
7	**Tuman irrigatsiya bo‘limi**	**1 879 711,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 879 711,0

	Suv xo‘jaligi tizizmi tashkilotlarini saqlash xarajatlari	1 879 711,0
8	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	**2 065 825,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 065 825,0
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 065 825,0
9	**Davlat soliq inspeksiyasi**	**3 579 956,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 579 956,0
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘limlarini saqlash xarajatlari	3 579 956,0
10	**Tuman hokimligi**	**19 217 081,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	19 217 081,0
	Tuman hokimligini saqlash xarajatlari	2 494 804,0
	Xalq qabulxonalari saqlash xarajatlari	149 058,0
	Xokimliklarni zahira jamg‘armasi	551 922,0
	Axborot kutubxona markazi	569 854,0
	Fuqarolarning tashabbusli jamg‘armasi	10 101 015,0
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	253 729,0
	Mahallabay xokim yordamchilari	2 615 623,0
	Mahalla byudjeti	768 355,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga moddiy yordam paketi	19 090,0
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	89 278,0
	Oila va xotin-qizlar bo'limi	1 604 353,0
11	**Obodonlashtirish bo‘limini saqlash xarajatlari**	**10 108 994,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 108 994,0
	Nazoratsiz xayvonlarni tutish bilan bog‘liq xarajatlar,	140 646,0
	Ko‘cha va yo‘llarni loyihalash va ta'minlash xarajatlariga	4 000 000,0
	Drenaj ishlari bilan bog‘liq xarajatlar	136 250,0
	Ko‘chalarning tashqi yoritish tarmoqlarini saqlash xartajatlariga	397 422,0
	Obodonlashtirish bo‘limi (markaz)	3 975 068,0
	Tuman markazi va boshqa axoli punkitlaridagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish xarajatlari	1 459 608,0

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
4-ilova

Tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so'mda

Tuman nomi	Tartibga soluvchi transfert miqdori
Guliston tumani	39371177

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

ming so'mda

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda
1.	**Uy-joylar:**		
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	5.000
	noturar joy		10.000
2	**Avtomobil transporti:**		
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchu	780.000
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1.550.000

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari

ming so'mda

Yig‘imlarning turlari	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	300.000
Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	150.000

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
7-ilova

2024-yil uchun avtotransport yig'imlarining stavkalari

ming so'mda

T/r	Yig‘imlar va to‘lovlar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I	**Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlar**	**AQSh dollarida**
1	O‘zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalari kirganligi va tranziti uchun yig‘im, bitta avtotashuvchi kirganligi uchun stavkalari (2-7-bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
4	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
6	Yevro‘pa Ittifoqiga azo davlatlar yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	150
7	Afg‘oniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im	50

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab xorijiy davlatlarning og‘ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lov undirila.

2. O‘zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o‘tishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda 175 AQSh dollari miqdorida yig‘im undirilad.

3. Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsient qo‘llaniladi

4. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Xalq deputatlari Guliston tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
8-ilova

2024-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

T/R	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol- mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qar'idan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan daromad solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Guliston tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
9-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	MFY lar nomi	Koeffisient (0,7 dan 1,3 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2024-yil uchun (1 gektar uchun)
1	A.Navoiy MFY	0,90	24 300
2	A.Yassaviy MFY	1,00	27 000
3	Ahillik MFY	1,00	27 000
4	Baxmal MFY	0,90	24 300
5	Beshbuloq MFY	1,00	27 000
6	Birlashgan MFY	0,90	24 300
7	Boyovut MFY	0,90	24 300
8	Do'stlik MFY	1,00	27 000
9	Zarbdor MFY	1,00	27 000
10	Ibrat MFY	1,00	27 000
11	Ishonch MFY	1,00	27 000
12	Mevazor MFY	1,00	27 000
13	Mustaqillik MFY	0,90	24 300
14	Oqoltin MFY	0,90	24 300
15	Oltin vodiy MFY	1,00	27 000
16	Soyibobod MFY	0,90	24 300
17	Sohil MFY	0,90	24 300
18	Sohilobod MFY	0,90	24 300
19	Tajribakor MFY	0,90	24 300
20	Terakzor MFY	0,90	24 300
21	Furqat MFY	1,00	27 000
22	X.Olimjon MFY	0,90	24 300
23	Chortoq MFY	0,90	24 300
24	Sharq haqiqati MFY	0,90	24 300
25	Yulduz MFY	1,00	27 000
26	Inoqlik MFY	0,90	24 300

Izoh: Tuman Kengashi tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
10-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so'mda

T/p	Hudud nomi	Koeffisient (0,7 dan 1,3 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2024 yil uchun (1 кv uchun)
1	A.Navoiy MFY	0,90	193,59
2	A.Yassaviy MFY	1,00	215,10
3	Ahillik MFY	1,00	215,10
4	Baxmal MFY	0,90	193,59
5	Beshbuloq MFY	1,00	215,10
6	Birlashgan MFY	0,90	193,59
7	Boyovut MFY	0,90	193,59
8	Do'stlik MFY	1,00	215,10
9	Zarbdor MFY	1,00	215,10
10	Ibrat MFY	1,00	215,10
11	Ishonch MFY	1,00	215,10
12	Mevazor MFY	1,00	215,10
13	Mustaqillik MFY	0,90	193,59
14	Oqoltin MFY	0,90	193,59
15	Oltin vodiy MFY	1,00	215,10
16	Soyibobod MFY	0,90	193,59
17	Sohil MFY	0,90	193,59
18	Sohilobod MFY	0,90	193,59
19	Tajribakor MFY	0,90	193,59
20	Terakzor MFY	0,90	193,59
21	Furqat MFY	1,00	215,10
22	X.Olimjon MFY	0,90	193,59
23	Chortoq MFY	0,90	193,59
24	Sharq haqiqati MFY	0,90	193,59
25	Yulduz MFY	1,00	215,10
26	Inoqlik MFY	0,90	193,59

Izoh: Tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-73-203-9-124-K/23-son qaroriga
11-ilova

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0 dan 0,5 gacha)	Yuridik shaxslarninig mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2024-yil uchun (ming.so‘m)
1	Guliston tumani	0,70	840,0